



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.05.2024 yildagi PF-82-son

Кучга кириш санаси

27.05.2024

Қўшимча ахборот

Улашиш

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

OLIV VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI TALABALARI VA O'QUVCHILARIGA BUDJET MABLAG'LARI HISOBIDAN TA'LIM KREDITINI AJRATISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH TO'G'RISIDA

Oliy va professional ta'lim tashkilotlarida to'lov-kontrakt asosida o'qiyotgan talaba va o'quvchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun ajratilayotgan Davlat budgeti mablag'laridan samarali foydalanish maqsadida:

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024/2025 o'quv yilidan boshlab Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan oliy va professional ta'lim tashkilotlarining talaba va o'quvchilariga ta'lim kreditlari (keyingi o'rinlarda — ta'lim krediti) ajratishning quyidagilarni nazarda tutuvchi tartibini joriy qilish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin:

a) oliy va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olish uchun ta'lim kreditini faqat kunduzgi ta'lim shaklida o'qiyotgan talaba va o'quvchilarga ajratish;

b) ta'lim kreditini:

oliy ta'lim tashkilotlarining birinchi bosqich talabalari hamda professional ta'lim tashkilotlari o'quvchilari uchun to'lov-kontrakt summasi miqdorida;

oliy ta'lim tashkilotlarining ikkinchi va undan yuqori kurs talabalari uchun fanlarni o'zlashtirishning o'rtacha ko'rsatkichi "3" dan past bo'lgan taqdirda to'lov-kontrakt summasining ko'pi bilan 80 foizi miqdorida ajratish ("Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kiritilgan oilalar farzandlari bundan mustasno).

2. Belgilansinki:

a) ta'lim krediti:

oliy ta'lim tashkilotlari talabalari uchun — talabalar to'g'risidagi ma'lumotlar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Talabalarga shartnoma asosida ko'rsatiladigan xizmatlar hisobini yuritish" (kontrakt.edu.uz) axborot tizimi va "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish" (HEMIS) axborot tizimida mavjud bo'lganda;

professional ta'lim tashkilotlari o'quvchilari uchun — o'quvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Professional ta'lim jarayonlarini boshqarish" (prof.edu.uz) axborot tizimida mavjud bo'lganda ajratiladi;

b) o'z dasturiy ta'minotiga ega bo'lgan oliy va professional ta'lim tashkilotlari ta'lim kreditini olish uchun Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli axborot tizimlariga o'z axborot tizimini integratsiya qilishi yoki ulardan foydalanishi majburiy hisoblanadi.

3. Quyidagilar:

a) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2024-yil 1-iyulga qadar tashkiliy-huquqiy shakli va idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar barcha oliy va professional ta'lim tashkilotlarining to'lov-kontrakt shartnomasi "kontrakt.edu.uz" va "prof.edu.uz" axborot tizimlari orqali shakllantirilishini;

b) Iqtisodiyot va moliya vazirligi:

Raqamli texnologiyalar vazirligi, Markaziy bank bilan birgalikda 2024/2025 o'quv yili boshlangunga qadar ta'lim kreditini olish uchun arizalarni Iqtisodiyot va moliya vazirligining "Ta'lim krediti" axborot tizimi (ta'lim-kredit.mf.uz) va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali topshirish imkoniyati yaratilishini;

"Ta'lim krediti" axborot tizimi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishini ta'minlasin.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga **ilovaga** muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

6. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari J.A. Qo'chqorov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2024-yil 27-may,
PF-82-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2024-yil 27-maydagi
PF-82-son Farmoniga
ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni 3-bandining "a" kichik bandi **birinchi xatboshisidagi** ", shu jumladan sirtqi va kechki" so'zlari "kunduzgi" so'zi bilan almashtirilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-iyuldagi "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5203-son **qarorida**:

a) **nomlanishi** va **muqaddimadan** ", o'rta maxsus" so'zlari chiqarib tashlansin;

b) 1-bandning **birinchi xatboshisida**:

"2021/2022" raqamlari "2024/2025" raqamlari bilan almashtirilsin;

", o'rta maxsus" hamda ", sirtqi va kechki" so'zlari chiqarib tashlansin;

v) quyidagi mazmundagi 1^l-band bilan to'ldirilsin:

"1^l. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra ta'lim krediti 2024/2025 o'quv yilidan boshlab:

a) oliy ta'lim tashkilotlarining birinchi bosqich talabalari hamda professional ta'lim tashkilotlari o'quvchilari uchun to'lov-kontrakt summasi miqdorida ajratiladi;

b) oliy ta'lim tashkilotlarining ikkinchi va undan yuqori bosqich talabalari uchun fanlarni o'zlashtirishning o'rtacha ko'rsatkichi (grade point average):

"3" dan past bo'lgan taqdirda, to'lov-kontrakt summasining ko'pi bilan 80 foizi miqdorida ajratiladi, bunda kredit to'lov-kontrakt summasining dastlabki 20 foizi talaba tomonidan to'langandan keyin ajratiladi;

"3" va undan yuqori bo'lgan taqdirda va (yoki) "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kiritilgan oilalarning ta'lim olayotgan a'zolari uchun ta'lim krediti to'lov-kontrakt summasi miqdorida ajratiladi.

Bunda:

a) joriy o'quv yili uchun ta'lim kreditini olmoqchi bo'lgan talabaning fanlarni o'zlashtirishining o'rtacha ko'rsatkichi (grade point average) avvalgi o'quv yili yakuni bo'yicha "Oliy ta'lim jarayonlarini

boshqarish" (HEMIS) axborot tizimidan olinadi;

b) talabaning fanlarni o'zlashtirishining o'rtacha ko'rsatkichi (grade point average) va tegishli ma'lumotlari "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish" (HEMIS) axborot tizimida, to'lov-kontrakt to'g'risidagi ma'lumotlari esa "Talabalarga shartnoma asosida ko'rsatiladigan xizmatlar hisobini yuritish" (kontrakt.edu.uz) axborot tizimi orqali avtomatik tarzda shakllantiriladi;

v) nodavlat va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining to'lov-kontrakt to'g'risidagi ma'lumotlari ularning o'z axborot tizimlarini "Talabalarga shartnoma asosida ko'rsatiladigan xizmatlar hisobini yuritish" (kontrakt.edu.uz) axborot tizimiga integratsiya qilish yoki mazkur axborot tizimidan foydalanish orqali shakllantiriladi".

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-iyuldagi "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-323-son [qarorida](#):

a) [nomlanishidan](#) " , o'rta maxsus" so'zlari chiqarib tashlansin;

b) 1-bandning [birinchi xatboshisidan](#) " , o'rta maxsus" hamda " , sirtqi va kechki" so'zlari chiqarib tashlansin;

v) quyidagi mazmundagi 1¹-band bilan to'ldirilsin:

"1¹. 2024/2025 o'quv yilidan boshlab ta'lim krediti ikkinchi va undan yuqori bosqich talabalari uchun fanlarni o'zlashtirishning o'rtacha ko'rsatkichi (grade point average):

"3" dan past bo'lgan taqdirda, to'lov-kontrakt summasining ko'pi bilan 80 foizi miqdorida ajratiladi, bunda kredit to'lov-kontrakt summasining dastlabki 20 foizi talaba tomonidan to'langandan keyin ajratiladi;

"3" va undan yuqori bo'lgan taqdirda va (yoki) "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kiritilgan oilalarning ta'lim olayotgan a'zolari uchun ta'lim krediti to'lov-kontrakt summasi miqdorida ajratiladi.

Bunda:

a) joriy o'quv yili uchun ta'lim kreditini olmoqchi bo'lgan talabaning fanlarni o'zlashtirishining o'rtacha ko'rsatkichi (grade point average) avvalgi o'quv yili yakuni bo'yicha "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish" (HEMIS) axborot tizimidan olinadi;

b) talabaning fanlarni o'zlashtirishining o'rtacha ko'rsatkichi (grade point average) va tegishli ma'lumotlari "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish" (HEMIS) axborot tizimida, to'lov-kontrakt to'g'risidagi ma'lumotlari esa "Talabalarga shartnoma asosida ko'rsatiladigan xizmatlar hisobini yuritish" (kontrakt.edu.uz) axborot tizimi orqali avtomatik tarzda shakllantiriladi;

v) nodavlat va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining to'lov-kontrakt to'g'risidagi ma'lumotlari ularning o'z axborot tizimlarini "Talabalarga shartnoma asosida ko'rsatiladigan xizmatlar hisobini yuritish" (kontrakt.edu.uz) axborot tizimiga integratsiya qilish yoki mazkur axborot tizimidan foydalanish orqali shakllantiriladi";

g) [3-banddan](#) " , o'rta maxsus" so'zlari chiqarib tashlansin.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.05.2024-y., 06/24/82/0372-son)



Tezkor va qulay
onlayn mikroqarz

100 mln
so'mgacha

Kredit foizi: 26%-30% gacha
Kredit muddati: 2-48 oygacha

